1918-yil 26-yanvardagi RSFSR Xalq Komissarlari Soveti raisining maxsus dekreti bilan Rossiya hududida grigoryan kalendari joriy qilinib, amalda mavjud bo'lgan 13 kunlik farq tuzatildi. Xullas, 1918-yil 31-

yanvardan keyin 1-fevralga emas, balki 14-fevralga o'tildi.

1918-yil 30-yanvar kuni Turkiston o'lkasi XKS harbiy harakatlarni boshladi.

1918-yil 30-yanvar kechqurun Toshkentdan yuborilgan dastlabki harbiy otryadlar Skobelovdan Qo'qonga to'p va pulamyotlar bilan yetib keldi.

1918-yil 31-yanvardan keyin 1-fevralga emas, balki 14-fevralga o'tildi. Rossiya hududida grigoryan kalendari joriy qilinib, amalda mavjud bo'lgan 13 kunlik farq tuzatildi.

1918-yil 31-yanvar tushdan keyin Turkiston o'lkasi XKS Qo'qondagi Muxtoriyatga qarshi jang harakatlarni boshladi.

1918-yil 14-fevraldan boshlab yil hisobi yangi hisob bo'yicha beriladi.

1918-yil 15-fevralda Qo'qondagi Muxtoriyatga qarshi jang natijasida shaharda yong'inlar bo'ldi.

1918-yil 18-fevraldan boshlab Qo'qon shahar mirshablar boshlig'i Kuchik Ergash qo'rboshi amalda muxtoriyat hukumati rahbariga aylandi.

1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib keldi.

1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnomasi» imzolandi.

1918-yil 27-fevralda Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan bo'lgan Kuchik Ergash shahid bo'lgan.

1918-yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida dastlab Qo'qon atroflarida bolsheviklar baktmonligidagi sovet rejimiga qarshi istiqlochilik harakati boshlandi.

1918-yilningerta bahorida avval Farg'ona vodiysida, so'ngra butun Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qo'rali istiqlochilik harakati boshlandi.

1918-yil martida Brest-Litovsk shahrida Germaniya bilan sulh tuzildi.

1918-yil 1-martda Turkiston o'lkasi XKS raisi Fyodor Kolesov boshchiligidagi 3500 kishidan iborat harbiy kuchlar Yangi Buxoroga yetib keldi.

1918-yil 2-mart kuni Esik Buxoro shahriga hujum boshlandi.

1918-yil 5-mart kuni kechqurun F.Kolesov Toshkent tomonga chekinishga buyruq berdi.

1918-yil 25-martda sovet Turkistoni bilan Buxoro amirligi o'rtasida Qozilrepa bitimi imzolandi.

1918-yil 20-aprel-1-mayda Toshkentda Turkiston ishchi, soldat, kresnyan, musulmon va dehqon deputatlarining V o'lkasi syezdi bo'lib o'tildi.

1918-yil 30-aprelda sovet Rossiyasi hukumati rahbarlari V.I. Lenin va I.V. Stalin ko'rsatmasi asosida «Rossiya Sovet federatsiyasi» Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizomni qabul qildi.

1918-yil 17-25-iyunda Toshkentda Turkiston boshqaruv tashkilotlarining tashkiliy o'tka syezdi bo'lib o'tib, unda Turkiston Kommunistik Partiyasi-RKP(b)ning tarkibiy qismi bo'lgan Turkiston Kommunistik partiyasi(TKP) tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi.

1918-yil o'rtalaridan e'tiboran Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi qarashgan Junaidxon qizil askarlariga qarshi mustaqillik uchun jang boshlagan edi.

1918-yilning o'rtalariga kelib farg'ona vodiysida taxminan 100 yil yaqin qo'rboshi o'z guruhlarini bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar.

1918-yil avgustga kelib ingliz qo'shinlari butun Eronni o'z nazoratiga oldi.

1918-yil 30-oktabrda Xivada bo'lgan saroy fitnasi oqibatida Asfandiyorxon o'ldirildi.

1918-yil 20-noyabrda Turkiston ASSRda T.Risqulov raisligidagi o'charchilikka qarshi Markaziy komissiya tuzilgan.

1918-yil noyabrda Junaidxon qo'shinlari Amudaryodan o'tib To'rtko'lga hujum qildi.

1918-yil noyabrda kelib g'alayonlar Germaniyaning barcha yirik shaharlarini qamrab oldi.

1918-yildan boshlab Bahrombek 2000 yigit bilan Samarqand viloyatida qizil armiyaga qarshi janglarda faol qatnashdi.

1918-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan davri «Eng yangi tarix» deb ataladi.

1918-yili Rossiyaning Volgabo'yi, Ural, Sibir, Uzoq Sharq hududlarida sovet hokimiyatini ag'darib tashladi.

1918-yilda Asfandiyorxon tomonidan Junaidxon Xiva xonligi qonun kuchi qo'mondoni qilib tayinlandi.

#### 1919-yilda bo'lgan voqealar

1919-1923-yillari imzolangan shartnomalar va jahondagi kuchlarning yangi nisbati xalqaro munosabatlarning Versal-Vashington tizimi nomini oldi.

1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha Parij yaqinidagi Versal saroyida 27 davlat vakillari ishtirokida tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi.

1919-yil mart oyida Turkiston Kommunistik partiyasining II konferensiyasida RKP(b) o'tka Musulmonlar byurosi (Musbyuro) tashkil qilindi.

1919-yil mart oyida umumiy inqiroz sharoitida Benito Mussolini

boshchiligidagi tuzilgan fashistlar partiyasi faollashib ketdi.

1919-yil 9-aprelda Xiva yaqinidagi Taxta qishlog'ida Junaidxon tomonidan sovet hokimiyati vakillari o'rtasida shartnoma imzolandi.

1919-yil mayda Millatlar Ligasi nomidan Buyuk Britaniya va Fransiya Osiyo va Afrikadagi katta hududlarni boshqarishga mandat oldi.

1919-yil 4-may kuni xitoylik talabalar Pekinda namoyish boshladi.

1919-yil 28-iyunda Germaniya Versal tinchlik shartnomasini imzoladi.

1919-yil 31-iyul kuni Veymar shahrida konstitutsiya qabul qilindi.

1919-yil 31-iyul kuni Veymar shahrida Ta'xis majlisi inqilobiy hukumatning demokratik talablarini qoniqtiruvchi konstitutsiyani qabul qildi.

1919-yil yozining oxiri va kuzida Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.

1919-yil 12-oktabrda Pomining Ergashtom ovulida bo'lgan majmunda Madaminbek boshchiligidagi farg'ona muvaqqat muxtoriyati tashkil topdi.

1919-yil 4-noyabrda yosh xivaliklar, To'rtko'l'dagi inqilobchi kommunistlar guruhi hamda Qo'shmamedxon Supiyev va Gulommalixon Bahodir boshchiligidagi turkman qabilalari xiva xoni Abdullaxon va to'rtkumon yovmutlarining yetakchisi Junaidxonga qarshi kurash boshlash uchun o'zaro ittifoq tuzib, xiva shahrini egallash uchun qizil askarlarni yordamga chaqirdi.

1919-yil noyabr-1920-yil yanvar oylarida Turkiston frontining Amudaryo (Xiva) guruhi qo'shinlari xonlik hududini bosib olish uchun to'rtkumon janglar bordi.

1919-yil noyabrda Fransiya saylov jarayoni millatchilik va bolsheviklar xavfi bilan qo'rqitish ruhi ostida o'tdi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo'l ostida 30 000 kishiga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordi.

1919-yil imzolangan Angliya-Eron shartnomasiga binoan Eron amalda Buyuk Britaniyaning protektoratiga aylantirildi.

1919-yil Parij konferensiyasida Xitoy o'z talablari bilan ishtirok etdi.

1919-yili Germaniya natsional-sotsialistik ishchi partiyasi paydo bo'ldi.

1919-yili Hindistonning Amritsar shahrida ingliz qo'shinlari tinch namoyishchilarni o'qqa tutdi.

1919-yili Parij konferensiyasi qaroriga ko'ra Usmoniylar imperiyasi Millatlar Ligasining mandati ostiga o'tdi.

1919-yilda «O'rta Osiyo jadalining otasi» Mahmudxo'ja

Behbudiy vafot etgan.

#### 1920 - yilda bo'lgan voqealar

1920-1930-yillari AQSHning tashqi siyosatida juda muhim voqea bo'lib, unchalik ko'p bo'lmadi.

1920-1940-yillarda hindlarning zo'ravonliklarsiz ommaviy chiqishlarini tashkil qilishda hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandining roli beqiyos bo'ldi.

1920-1933-yillarda «Qo'shchi» ittifoqi faoliyat ko'rsatgan.

1920-yil yanvarda Turkiston ASSR MIK raisi, o'lka Muschessin byurosi raisi T.Risqulov Turkiston Sovet Respublikasi nima o'zgartirib, uni Turk Respublikasi deb atashi, yagona kommunistik partiya-Turkiston turkiy xalqlarning kommunistik partiyasini (qisqartirib Turk partiyasi) tuzish taklifi bilan chiqdi.

1920-yil yanvar oyining o'rtalariga kelib Farg'ona vodiysida bolsheviklar tomonidan qo'shimcha kuchlarning boshlanishi natijasida jangovor tashabbus qizil armiya qo'lga o'tdi.

1920-yil 1-fevralda Turkiston fronti xonlik poytaxti Xiva bosh olindi.

1920-yil 2-fevralda Xivada Muvagqat inqilobiy qo'mita tuzildi.

1920-yil bahorida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)da yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshladi.

1920-yil 6-martda Skobelov shahrida Madaminbek bilan 2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i N.Veryovkin-Roxalskiy o'rtasida yurak bitimi imzolandi.

1920-yil 10-martda bo'lgan Turkiston ASSR MIK va Turkiston Kompartiyasining birlashgan kengashida Sultonbek Xo'janov, Sanja Asfandiyorov, N.Paskutskiy kabi atog'li partiya xodimlari Sovet Sotsialistik Respublikalarining O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish taklifi bilan chiqdilar.

1920-yil 26-30-aprelda Xiva shahrida bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi e'lon qilindi.

1920-yil 3-mayda Shermuhammadbek boshchiligidagi Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati tashkil topdi.

1920-yil mayda Marg'ilonlik militsiyaning sobiq boshlig'i Madaminbek noaniq vaziyatda o'ldirildi.

1920-yilning yozida T.Risqulov o'z vazifasidan ozod qilinib, Moskvaga ishga chaqirib olindi.

1920-yilning yozi va kuzida Turkistondagi harakat o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

1920-yil iyulda Pekindagi hukumat ag'darilib, hokimiyatga Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan U Peyfu keldi.

1920-yil 12-avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro guruhini (fronti)ni tuzish to'g'risida buyruq berdi.

1920-yil 29-avgustda Sovet hukumati xalqaro huquq normalarini qo'pol ravishda buzib, Buxoro amirligini tugatishga kirishdi.

1920-yil kuziga kelib Buxoroda amirlik tuzimi ag'darilgach, qizil armiyaga qarshi kurash olib borgan qo'rboshilar guruhlar, shahar va tumnolarda ko'tarilgan qo'zg'olonlar mamlakatning barcha hududiga - sharbiy, markaziy, sharqiy qismlarida boshlanib ommaviy tus oldi.

1920-yil sentabr oyida Sharqiy Buxoroga kelgan sobiq amir Olimxon katta kuchlar to'plab, qizil armiyaga qarshi kurashga rahbarlik qildi.

1920-yil 1-2-sentabr kunlari Buxoroning Qarshi darvozasigacha kelgan temiryo'lda turgan bronopoyezd (zirhli poyezd) va samarqand, shayx Jalol, namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to'plardan shaharga 12 000 snaryad tashlangan.

1920-yil 2-sentabrda qizil armiya tomonidan Buxoro shahri egallandi.

1920-yil sentabrda «qizil qo'mondan» M.Frunze Moskvaga qaytgach, qo'lga olingan va bir necha oy uy qamog'ida saqlangan.

1920-yil sentabrda Xivada xalq dorulfunni ochilgan.

1920-yil 6-8-oktabrda amirning yozgi saroyi Sitorai-Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi.

1920-yilda Bal Gangadhar Tilak vafot etgan.

1920-yilda Qirg'iziston ASSR (ashida Qozog'iston ASSR) tashkil qilingan.

1920-yilda Turkistondan tashib ketilayotgan non mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat turlarining miqdori bir necha marta ko'paygan.

1920-yildan boshlab istiqbolchilik harakati qaytadan shiddat bilan rivojlandi.

1920-yildayoq turkiy xalqlar yagona Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi degan g'oyani ilgari surishgan.

1920-yilgi Sevra shartnomasiga ko'ra Turkiya hududi bir guruh Yevropa davlatlari o'rtasida bo'lib olinishi ko'zda tutildi.

1920-yili Afrikada birinchi siyosiy partiya-Afrika Milliy kongressi (AMK) tashkil topdi.

1920-yillar boshida leyboristlar Buyuk Britaniya siyosiy tizimida ikkinchi partiya sifatida o'rnatilib oldi. Ular

1920-yillar o'rtalariga kelib Yaponiyada sanoat to'ntarishi yuz berdi.

1920-yillar ovozi kino ustida ishlash davri bo'ldi.

1920-yillar oxiri-1930-yillar boshida SSSRda amalga oshirilgan eng muhim tadbir mamlakatni industrilashtirish bo'ldi.

1920-yillar oxiriga kelib har ikki amerikalikning bittasida radiopriyomnik bor edi.

1920-yillar oxiriga kelib Lotin Amerikasi mamlakatlari ekstensiv asosda iqtisodni samarali rivojlantirishning imkoniyatlari tugadi.

1920-yillar oxiriga kelib Yaponiyada harbiylarning roli kuchaydi va so'li kuchlar quvg'in ostiga olindi.

1920-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy jihatdan faqat nomigagina respublika edi.

1920-yillarda sovetlar tashqi siyosatining asosiy vazifasi yangi hokimiyatning xalqaro miqyosda tan olinishiga erishish bo'ldi.

1920-yillarda Yaponiyada yangi siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi hamda saylovchilar sonini asta-sekin oshirib borgan qator islohotlar bilan xarakterlanadi.

1920-yillardagi liberal islohotchilik Lotin Amerikasida ancha oyoqqa turgan mahalliy burjuaziyaning, shuningdek, aholining keng qatlamli manfaatlarini aks ettirardi.

1920-yillari Germaniya Fransiya katta reparatsiya to'lashi sanoatning o'sishi uchun qulay sharoit yaratdi.

1920-yillari Turkiya iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishini chet ellik mulkdorlardan san'at korxonalari, infratuzilma obyektlari, temir yo'llarni sotib olish, milliy san'atni yaratish tashkil qildi.

#### 1921 - yilda bo'lgan voqealar

1921-1922-yillarda Turkistondan Rossiyaga 4,4 mln pud g'alla jo'natilgan.

1921-1922-yillarda dastlab arab imlosi isloh qilinib, ancha soddalashtirildi.

1921-1922-yillari Vashingtonda bo'lib o'tgan konferensiyada barcha ishtirokchi davlatlar Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligini kafolatladi.

1921-yil fevralda kazaklar polki sardori polkovnik Rizoxon hukumatni ag'darib tashladi.

1921-yil ko'klamiga kelib Turkistonning iqtisodiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar o'tkazish zarurligi ravshan bo'lib qoldi.

1921-yil martda RKP(b) X syezdi oziq-ovqat razvyotkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish to'g'risida qat'ori chiqdi.

1921-yil avgustda Turkiston ASSRda yangi iqtisodiy siyosatga o'tish Turkiston Kompartiyasi VI syezdidagi siyosiy jihatdan asoslab berildi.

1921-1922-yillarda Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar yer-suv islohotining birinchi bosqichini tashkil qiladi.

1921-yil bahorida yer-suv islohoti boshlanib, u dastlab Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida amalga oshirildi.

1921-yil mart oyida bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragan olimxon afg'oniston davlati hududiga ketishga majbur bo'ldi.

1921-yil 6-martda Xorazmda qizil askarlar uyushtirgan harbiy to'ntarishidan keyin P.Yusupov hukumati ham ag'darib tashlandi.

1921-yil iyun-sentabr oylarida farg'ona armiya gruppasi shtabining «mutlaqo maxfiy» ma'lumotlariga qaraganda viloyatda 200 dan ortiq qo'rboshi guruhlari harakat qilgan.

1921-yil 18-23 sentabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhda BXS R Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1921-yil 13-sentabrda Farg'ona vodiysida favqulodda holat e'lon qilindi.

1921-yil oktabrda Anvar Posho Kavkazdan Buxoro shahriga keldi.

1921-yil 9-noyabrda Anvar Posho Qarshi yaqinidagi Qiliko'l atrofida Mulla Nafis qo'rboshi bilan uchrashdi.

1921-yil noyabrda Farg'ona viloyatida sovet hokimiyati tomonidan harbiy diktatura o'rnatildi.

1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6-fevralgacha Uzoq Sharq va Tinch okeanidagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida to'qqiz davlat vakillari ishtirokida Vashington konferensiyasi bo'lib o'tdi.

1921-yil 24-noyabrda XXSRning yosh hukumati Afg'onistonga qozikalon boboxun sulimov boshchiligidagi muxsus elchilik hay'ati jo'natgan.

1921-yil dekabrda Buyuk Britaniya dominion huquqiga ega bo'lgan «Ozod Irlandiya davlatini» tan oldi.

1921-yil dekabrda Vashington konferensiyasida to'rt davlat-AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya o'rtasida shartnoma imzolalanib, ushbu davlatlarning Tinch okeani havzasidagi o'z orollariga egalik qilish huquqlari kafolatlandi.

1921-yilda rus shoiri A.Blok vafot etgan.

1921-yilgi parlament saylovlarida Italiyada fashistlar 36 ta o'ringa ega bo'ldi.

1921-yili Italiyada fashistlar harakati bir qadar rasmiy tus olib, davlatning siyosiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan millatchilik tashviqotini olib bordi.

1921-yili sovet davlati kuchli iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi.

1921-yili Sun Yatsen Xitoy Respublikasi prezidenti lavozimiga saylandi.

1921-yilda rus shoiri N.Gumilev otib tashlandi.

1921-yilda qo'rboshi Katta Ergash vafot etgan.

1921-yildan boshlab Ochilbek Ahmad Zaki Validiyning yozishicha

«Turkiston milliy birligi» tashkiloti ko'rsatmasi asosida faoliyat ko'rsatgan.

#### 1922-yilda bo'lgan voqealar

1922-1924-yillarda Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi lavozimini Porso Xo'jayev egallagan.

1922-yil ko'klamida Junaidxon Xorazmda o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi.

1922-yil aprel oyida Junaidxon qo'shinlari Porso shahri va uning qizil askarlaridan ozod qilishdi.

1922-yil yuzigacha Samarqandda Bahrombek o'z yigitlari bilan qizil armiyaga qarshi fiol kurashgan.

1922-yil avgustda Anvar Posho Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofidagi Obidara qishlog'ida qizil askarlarga qarshi jangda martlarcha halok bo'ldi.

1922-yil kuzida Bahrombek va ukasi shahriyor qo'rboshini qo'lg'a olishib, Samarqand shahrida otib tashlashgan.

1922-yil oktabrda fashistik guruhlarning mashhur Rimga yurishidan so'ng qirol Viktor Emmanuel III Mussolini hukumat boshlig'i etib tayinladi.

1922-yil oktabrga kelib M. Kamol qo'shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi.

1922-yil noyabrda Qizil armiya Vladivostok shahrini otib, Tinch okeaniga chiqishi bilan Rossiyada Faqarolar urushi, asosan, yakunlandi.

1922-yil 1-noyabr kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi sulton hokimiyatini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qildi.

1922-yil dekabrda XXSRda yagona soliq tizimi joriy etildi.

1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil qilindi.

1922-yil 30-dekabrda SSSR 4 ta ittifoqdosh sovet respublikasi (RSFSR, Ukraina, Belorussiya, ZSFSR-Kavkazorti) asosida tashkil topdi.

1922-yilda Fayzulla Xo'jayev Berlinda nemis bankarlari va chet-el savdo kompaniyalari bilan mustaqil shartnoma tuzishga bordi.

1922-yili amalga oshirilgan muhim tadhirlardan biri SSSRning tashkil topishi bo'ldi.

1922-yili Buyuk Britaniya Misr ustidan o'z protektoratini bekor qilib, uning to'liq mustaqilligini tan oldi.

1922-yili fiziolog olimlar Jon Makleod va Frederik Banting ko'plab tajribalar jarayonida o't pufagi gormoni bo'lgan insulinni olishga muvaffaq bo'ldilar.

1922-yili imzolangan Rapallo shartnomasidan so'ng Sovet Ittifoqi bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanib bordi.

1922-yili inglizlar Misrning mustaqilligini tan olishga, Buyuk Britaniya Afg'oniston va Eronning tashqi va ichki siyosatini nazorat qilishdan ham voz kechishga majbur bo'ldi.

#### 1923-yilda bo'lgan voqealar

1923-1924-yillarda Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik qo'shiniga Isom Polvon va Yormat Maxsum kabi qo'rboshilar rahbarlik qilgan.

1923-yildan boshlab Markaz Xorazmda «bosmachilik» harakatini tizlik bilan bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatlarni yanada kuchaytirdi.

1923-yil 12-yanvarda bo'lgan uchinchi chaqiriq XXSR MIK II sessiyasida Xorazmda 4 yildan buyon davom etib kelayotgan «bosmachilik» harakatiga qarshi mavjud hukumatning o'zi kurash olib borishga o'z ekanligini ochiq aytilib, RSFSR (aslida SSSR) hukumatidan «shoshilinch harbiy yordam» so'radi.

1923-yil 10-mayda Kitob atrofida qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida Ochilbek (u xalq orasida jasurligi uchun Ochilov sifatida mashhur bo'lgan) martlarcha halok bo'lgan.

1923-yil iyunda XXSRda hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib, davlat sanoat solig'i joriy qilindi.

1923-yilning yozi va kuzida tashqi kuchlar tazyiqi bilan Fayzulla Xo'jayevning yaqin safdoshlari bo'lgan Fitrat, Otavulla Xo'jayev, Sattor Xo'jayev, Muinjon Aminov, Qori Yo'ldosh Po'latov va boshqa nozirilar hukumat tarkibidan chiqarildi hamda Buxorodan surgun qilindi.

1923-yil sentabrda general Migel Primo de Rivera davlat to'ntarishi uyushtirdi.

1923-yil oktabr oyidan boshlab Xorazmdagi demokratik o'zgarish larga chek qo'yildi.

1923-yil 17-20-oktabrda bo'lgan Butunxorazm xalq vakillarining IV qurultoyi XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi.

1923-yil 29-oktabrda Turkiya respublika deb e'lon qilindi, M. Kamol respublika prezidenti etib saylandi.

1923-yil 8-noyabr kuni Myanxendagi juda bahaybat pivoxonaga 3000 ga yaqin odam yig'ildi.

1923-yil dekabrda Farg'ona vodiysi vakillari RSFSR tarkibida Farg'ona muxtor viloyatini tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan chiqqan.

1923-yili fransuzlar Germaniyaning Rur viloyatiga hostirib kirdi.

1923-yili Lozanna tinchlik shartnomasi imzolaniib, unda Turkiyaning urushdan keyingi chegaralari belgilab berildi va mustaqilligi tan olindi.

1923-yili Lozannada Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolagan yakuniy shartnomaga ko'ra, Turkiya o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

1923-yili qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra, Misr monarxiya deb e'lon qilindi.

1923-yil oxirida Yevropa mamlakatlari ichida eng qadrsiz pul Germaniyada edi.

#### 1924 - yilda bo'lgan voqealar

1924-1929-yillari jadal rivojlangan AQSH iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan mamlakatiga aylandi.

1924-yil boshlaridan boshlab sovet hokimiyati rahbariyati «mustaqil respublikalar» tashkil qilishga jiddiy kirishdi.

1924-yil yanvarda leyboristlar Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta hukumatni boshqardi.

1924-yil fevralda Buxoro Kompartiyasi chegaralanish masalasi yuzasidan Fayzulla Xo'jayev tomonidan yozilgan tezislarni qabul qildi.

1924-yil fevral-iyun oylarida SSSRdagi markaziy organlar, Turkiston, Buxoro, Xorazm kommunistik partiyalari va RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish masalalari yuzasidan zo'r berib ish olib borishdi.

1924-yil 8-mayda bir guruh Xorazm rahbarlari RKP(b) Mkga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to'g'risida maktub» yuborib, unga Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslikni iltimos qildilar.

1924-yil 12-iyunda I.V.Stalinning taklifi bilan RKP(b) MK Siyosiy byurosining «O'rta Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegarlash to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi.

1924-yil 17-iyunda o'zining 20 nafar hamrohi bilan Afg'onistondagi Hirat shahriga yetib keldi.

1924-yil iyulda Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul kotibi Qalandar Odinayev o'z vazifasidan olib tashlandi.

1924-yil 15-iyulda RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va oblastlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi.

1924-yil 26-iyulda Xorazm Kompartiyasining yangi rahbarlari respublikaning chegaralanishiga kiritilishiga o'z roziligini bildirdi.

1924-yil 18-20-sentabrda bo'lgan Butumbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSRRning nomi o'zgartirilib, u Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (HSSR)ga aylantirildi.

1924-yil 16-sentabrda bo'lgan Turkiston ASSR MIKning favqulodda sessiyasida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1924-yil 20-sentabrda Butumbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1924-yil 20-sentabrda Butumbuxoro xalq vakillarining V qurultoyida HSSR raisi Fayzulla Xo'jayev «O'rta Osiyoning milliy davlat chegaralanishini to'g'risida» ma'ruza qildi.

1924-yil davomida tirik qolgan qasoskorlarning ko'pchiligi qamshilikni to'xtatdi.

1924-yil yozi va kuzida Mulla Abdulqahhor yigitlari bilan qizil askarlar o'rtasida G'ijduvon tumanining G'ishtli va Kattag'amxo'r qishloqlarida, Nurota tog'larida, Shofirkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog'iafzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to'qnashuvlar bo'ldi.

1924-yil sentabr-oktabr oylarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi O'rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi.

1924-yil oktabrda RSFSR(Butunrossiya) Markaziy Ijroiya Komitetining II sessiyasida Turkiston ASSR MIKning milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi qarori ayrim tuzatishlar bilan qabul qilindi.

1924-yil 27-oktabrda Moskvada Butunittifoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining III sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiyasi, Butumbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoylari qarorlari asosida O'rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi.

1924-yil 29-oktabrda Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoyida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1924-yil 31-oktabrda taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev raisligida O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (markaziy revkom) tashkil topdi.

1924-yil 18-noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIK maxsus qo'shma qaror qabul qildi.

1924-yil kuzida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi.

1924-yilning oxirida Mulla Abdulqahhor qo'rboshi Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida halok bo'ldi.

1924-yil oxirida Turkiston mintaqasidagi istiqbolchilik harakatining birinchi davri yakunlandi.

1924-yil oxirida Markaz tomonidan mustaqil davlatlar bo'lgan XXSR va BXSRR tugatilib, mintaqada o'zbek xalqi davlatchiligi shakllangan ikki tarixiy markaz yo'qotildi.

1924-yil oxiriga kelib qo'rboshilar Turkistondagi iqtisodiy inqiroz va qishshoqlik, dahshatli icharchilik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi.

1924-yili amerikalik bankir Charlz Daves boshchiligidagi qo'mma xalqaro moliya-kredit va savdo munosabatlari tiklashning strategiya rejasini qabul qildi.

1924-yili Kavkazorti va O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi.

1924-yili SSSRning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi.

1924-yili Vladimir Lenin vafot etgandan so'ng davlatda Iosif Stalin va uning safdoshlari asosiy rol o'ynay boshladi.

1924-yilda Turkistondagi istiqlolchilik harakati mag'lubiyatga uchradi.

1924-yilda Avstriya yozuvchisi Frans Kafka vafot etgan.

1924-yil oxirida O'rta Osiyo respublikalarida hammasi bo'lib 8 131 062 kishi yashagan.

#### 1925 - yilda bo'lgan voqealar

1925-1935-yillar O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishining ikkinchi davridir.

1925-1932-yillarda Qoraqalpog'iston Qozog'iston tarkibida bo'ldi.

1925-1932-yillarda yer-suv islohotlarining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi.

1925-1929-yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida barcha viloyatlarda 5000 ga yaqin xo'jaliklar tugatildi, 23 000 dan ortiq o'ziga to'q xo'jaliklarning «ortiqcha» yerlari tortib olindi.

1925-1926-yillarda birinchi bosqich yer-suv islohotlari Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan.

1925-yil 29-yanvarda Turkistonda ilk bor ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazildi.

1925-yil 29-yanvarda O'zbekiston SSRda ilk bor ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm) va alohida Konimex tumani tashkil etildi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butun-O'zbek (O'zbekiston SSR) Sovetlarining I ta'sis qurultoyi ochildi.

1925-yil 17-fevralda «O'zbekiston-Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya» qabul qilindi.

1925-yil fevral-aprelda Buxoro shahri O'zbekiston SSR poytaxti bo'ldi.

1925-yil 6-12-fevralda 2-eski Buxoro shahrida O'zbekiston Kommunistik partiyasining I ta'sis syezdi bo'lib o'tdi.

1925-yil bahorda shaxsaiylik burjuziya, talabalar va ishchilar vakillari mamlakatdagi inglizlarga qarshi harakat boshladi.

1925-yil martda Sun Yatsen vafot etgan.

1925-yil 3-martda Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan O'zSSR MIK

kuratida Bobon Mavlonbekov raisligida «Davlat apparatini mahalliyatlashtirish Markaziy komissiyasi» tuzildi.

1925-yil 21-martda bo'lgan O'zbekiston kasaba uyushmalari I ta'sis syezdi unga asos solindi.

1925-yil aprelda 1930-yil sentabrigacha Samarqand shahri O'zbekiston SSR poytaxti sanalgan.

1925-yil aprelda O'zbekiston komsomoliga Samarqand shahrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi.

1925-yil 13-may kuni O'zbekiston SSR Butun-Ittifoq Sovetlarining III syezdi SSSR tarkibiga qabul qilindi.

1925-yil 22-30-noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining II syezdi «Partiya, sovet, xo'jalik, kasaba uyushmalari va kooperativ tashkilotlariga mahalliy aholini jalb qilish» masalasi ko'rib chiqildi.

1925-yil noyabrda «Agrar inqilobning strategiya va taktikasi O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi tasdiqlandi.

1925-yilning dekabr oyida chaqirilgan Ta'sis majlisi Rizoxonni Pahlaviylar sulolasining shohi deb e'lon qildi.

1925-yil dekabrda bo'lgan VKP(b) XIV syezdi SSSRda iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi vositasi sifatida sotsialistik industrilashtrishga o'tish ommaviy tarzda e'lon qilingan edi.

1925-yil 2-dekabrda O'zbekiston SSR MIKning «Suva va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida» va «yer-suv islohoti to'g'risida» dekretlar qabul qilindi.

1925-yilda O'zbekiston SSR hududi 312 394 km<sup>2</sup>, aholisi 3 963 285 kishi bo'lgan (unga Tojikiston ASSR va Qoraqalpog'iston avtonom viloyatining hududi va aholisi kirmaydi).

1925-yildan sovet-yapon munosabatlari yo'lga qo'yildi.

1925-yili Yaponiyada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi 1919-yilgi darajasidan oshib ketdi.

1925-yilda 200 000 kishini o'ziga birlashtirgan «Qo'shcha» ittifoqi mta-sekin holsabeyliklarning qishloqdagi xo'ravonlik siyosatining asosiy tashmichiga aylantirilgan.

1925-yilda rus shoiri S. Yesenin vafot etgan.

#### 1926 - yilda bo'lgan voqealar

1926-1929-yillari Fransiya hukumatining qadrsizlanishini to'xtatishga, kun kechirishni arzonlashtirishga erishdi.

1926-yil mayda Britaniya tarixidagi eng katta ijtimoiy inqirozlardan biri ishchilarning umumiy ish tashlab chiqarishi.

1926-yil sentabrda O'rta Osiyo xotin-qizlari kengashida «Hajjaro kompaniyasi» e'lon qilib, uni 1927-yil 8-martda boshlashga qaror qilindi.

1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi V sessiyasining ruyonlashtirish to'g'risida qarori qabul qilindi.

1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSRda 10 ta okrug (Xorazm, Buxoro, O'rta Zarafshon, Samarqand, Xo'jand, Qo'qon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo) va ulohida Konimex tumani tuzildi.

1926-yil dekabrda «Hujum» kompaniyasini o'tkazish uchun O'zbekiston respublikalari, xususan, O'zbekistonda maxsus komissiya tuzildi.

1926-yil 1-12-dekabrda Dushanbeda bo'lib o'tgan Tojikiston ASSR Sovetlarining I ta'sis syezida O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Tojikiston ASSR) tuzilganligi haqida deklaratsiya qabul qilindi.

1926-yil dekabrda Tojikiston ASSR hududi 135 620 km<sup>2</sup>, aholisi 739 503 kishi bo'lgan.

1926-yili O'zbekistonda 16 ta yirik ayollar artellari bo'lib, ularda 814 nafar mahalliy xotin-qizlar mehnat qilardi.

1926-yili general Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindan milliy hukumati Milliy inqilobiy armiyaning Shimolga yurishini boshladi.

1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan «Qullik haqida» konvensiyada qullik va qul savdosiga ta'rif berilib, ular qoralandi.

#### 1927-yilda bo'lgan voqealar

1927-1928-yillarda «Hujum» harakati eng faol o'tkazilgan O'zbekistonda 2500 dan ortiq faol xotin-qizlar, tumen va qishloq sho'rolarining a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudiralari, maallimlar yungi hayot yo'lida o'z jonini qurbon qildilar.

1927-1929-yillarda Iosif Stalin va uning safdoshlari NEP o'z rolini bajarib bo'ldi, deb hisobladi va asta-sekin uni bekor qilish boshlandi.

1927-1934-yillardagi islohotlar davrida Eronda bepul majburiy boshlang'ich ta'lim hamda pullik o'rta va oliy ta'lim to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

1927-yil 8-yanvarda O'zbekiston SSR MIK buzuridagi «Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy komissiyasi»ning nomi «Davlat apparati va sanoatni O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi» deb o'zgartirildi.

1927-yil 8-martda «Hujum» kompaniyasi boshlanishiga qaror qilindi.

1927-yil 8-martda Turkistonda ommaviy mitinglar boshlandi. Ularda 100000 dan ortiq o'zbek xotin-qizlar paranjilarini gulxanda yoqdilar.

1927-yil 30-martda O'zSSR Sovetlarining II syezida O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1927-yil 6-iyunda O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasining

nomi kuxhga kiritildi.

1927-yil 16-24-noyabrda O'zbekiston Kommunistik partiyasining III syezida «Davlat apparatini mahalliyashtirish va yerli millat sho'rolarini ishlab chiqarishga jalb qilish to'g'risida»gi masala ko'rildi.

1927-yilda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi Zarafshon o'loyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)da o'tkazilgan.

1927-yilda O'zSSRda xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 41,6 %, sanoatning salmog'i 37,4 % ni tashkil etar, shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning 90 foizi qishloq xo'jalik xomashyosi qayta ishlashga asoslangan edi.

1927-yili Andijondagi Eski shahar ayollar klubida 134 nafar a'zo bo'lgan.

1927-yili respublikadagi umman ijroiya qo'mitalari a'zolarining 20 foizi, okrug ijroiya qo'mitalari a'zolarining 17 foizi ayollar edi.

1927-yili Albaniya Italiyaning protektoratiga aylantirildi, keyin esa boshib chiqildi.

1927-yili Buyuk Britaniyaning mashhur radiokorporatsiyasi Bi-bi-si tashkil qilindi.

1927-yili Nyu-Yorkda namoyish qilingan «Jaz kuychisi» filmi mutaxassislar birinchi ovozli kino deb tan olishgan.

#### 1928-yilda bo'lgan voqealar

1928-1929-yillarda yer-suv islohotining uchinchi bosqichi Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida o'tkazilgan.

1928-1932-yillarga mo'ljallangan birinchi besh yillik sovet rejali iqtisodiyoti davrini boshlab berdi.

1928-yil oktabr - 1932-yil dekabrda, ya'ni birinchi besh yillik davrda O'zbekistonda 289 ta yangi sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxona qayta tashkil etildi.

1928-1933-yillari SSSRda kollektivlashtirish deb nom olgan siyosat amalga oshirildi.

1928-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR MIK va XKSning «Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qo'shma qarori qabul qilindi.

1928-yil kuzigacha mamlakat xalq xo'jaligi bir yillik rejalar asosida boshqarib kelindi.

1928-yili O'zbekistonda qishloq xo'jaligini zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish jarayonida sanoatni industrilashtirish ham amalga oshirilgan.

1928-yildan M. Kamoldan o'mak olib shoh Eronda yevropacha libos joriy qildi, feodal unvon va murojaat shakllari bekor qilindi, nasab joriy qilindi.

1928-yilgi saylovlarda ham Fransiya o'ng kuchlar g'olib chiqdi.

1928-yili britaniyalik olim Aleksandr Flenning o'z laboratoriyasida

bir qancha vaqtdan beri to'planib qolgan idishlarni yig'ishtirish uchun ulardan biridagi mog'orga ko'zi tushadi.

1928-yili kongressga bo'lib o'tgan saylovlarda yana respublikachilik g'alaba qozondi.

1928-yili tarixda ilk bor harakatlanuvchi tasvirni elektron-mech trubka yordamida masofaga uzatishni ixtirochilar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiy Toshkentda amalga oshirdilar.

#### 1929 - yilda bo'lgan voqealar

1929-1932-yillari Fransiyada bir nechta hukumat almashdi.

1929-1932-yillari AQSHda sanoat ishlab chiqarishi hajmi 50 % ga qisqardi, 13 mln.gacha yaqin kishi o'z ish joylaridan mahrum bo'ldi.

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi yapon iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi; u tinchlik sharoitida rivojlanishga moslashmagan, hali juda kuchsiz edi.

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Fransiyada 1930-yili boshlandi.

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlarida qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning salbiy tomonlarini, iqtisodning tashqi bozorga baddan tashqari qaramligining og'ir oqibatlarini ochib tashladi.

1929-1935-yillarida mustabid sovet rejimi badavlat va o'rtaol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosatini olib borgan.

1929-yil yanvarda Gerbert Guver AQSHning navbatdagi prezidenti qilib saylandi.

1929-yil 17-fevral-2-martda Samarqandda o'tkazilgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdidan keyin Markazning tazyiqi bilan milliy rahbar xodimlarga nisbatan jazo mexanizmi ishga tushirildi.

1929-yil 17-fevralda Samarqandda O'zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdi ish boshladi.

1929-yil 2-martda Samarqandda o'tkazilgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdi o'z ishini tugalladi.

1929-yil mart oyida O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov lovozidan bo'shatilib, qamoqqa olindi.

1929-yil may oyida Samarqandda o'tgan O'zbekiston adiblari, imlochilari va yetakchi ziyolilari konferensiyasida o'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish haqida qaror qabul qilindi.

1929-yil 10-avgustda «O'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish» haqida qaror O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi hay'ati tomonidan tasdiqlandi.

1929-yil 24-oktabrda Nyu-York fond birjasida boshlangan inqiroz tufayli barqaror rivojlanish davri tugadi.

1929-yil 24-oktabrda Nyu-York fond birjasida inqirozning bosh-

landi.

1929-yil 5-noyabrda Toshkentda ma'rifatparvar Munavvarqori Shukurshidxonov boshchiligidagi 38 nafar kishi qamoqqa olindi.

1929-yil 1-dekabrda O'zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o'tildi.

1929-yili o'zbeklashtirish siyosati bo'yicha tashkilotlararo o'zbeklashtirish komissiyasi faoliyat ko'rsatgan.

1929-yilgacha Tojikiston ASSR O'zbekiston tarkibida bo'lgan.

1929-yil sovet jamiyatida bozor munosabatlari muhiti harham topdi.

#### 1930 - yilda bo'lgan voqealar

1930-1931-yillarda O'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi o'z faoliyatini davom ettirgan.

1930-yil boshlarida Qashqadaryo okrugida dehqonlarning 14 ta xorozilik chiqishlari yuz berib, ularda 3700 kishi ishtirok etgan.

1930-yil fevraldan boshlab quloq xo'jaliklarini tugatish kompaniyasi O'zbekistonda ajv oldi.

1930-yil 17-fevralda VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining «Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risidagi ko'nutmasi asosida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qilindi.

1930-yil 17-fevralda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qarori qabul qilindi.

1930-yil mart oyida O'zSSRda 240 ta, SSSRda 2000 dan ortiq quroli chiqishlar qayd etilgan.

1930-yil avgust oyida Samarqand shahrida O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarlarida bir guruh rahbar xodimlar hibsga olindi.

1930-yil 20-sentabrda O'zbekiston poytaxti respublikaning eng muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo'lgan Toshkent shahriga ko'chirildi.

1930-yil 26-sentabrda VKP(b) MK Siyosiy byurosining «Yoppasiga jamoalashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilindi.

1930-yil oxirida Fransiyada iqtisodiy inqiroz boshlandi.

1930-yilda respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5000 nafardan ko'proq mahalliy ayollar ishlardi.

1930-yilda S.Qosimov va uning 6 nafar safdoshi ustidan SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasi Samarqand shahrida sud jarayonini o'tkazdi.

1930-yilgi burjua inqilobi Braziliyada oligarxiya rejimini ag'darib tashladi.

1930-yili Argentinada harbiy to'ntarish amalga oshirilib, Ipolito

Irigoyenning ikkinchi hukumati ag'darib tashlandi, hokimiyatga konservator guruhlar qaytdi.

1930-yili de Riveru iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1930-yili Fransiya ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari sinayib sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketdi.

1930-yili O'zbekistonda qoramollar miqdori 60 000 boshdan ziyodaga kamayib ketdi.

1930-yili O'zbekistonda yalpi kollektivlashtiriladigan 19 ta tuman Markaz tomonidan belgilab berildi.

1930-yili Sovet davlatida majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilindi.

1930-yili tayyorlangan ma'lumotnomada keltirilishicha, O'zbekiston Kompartiyasi MK sekretari Kirpanov tomonidan «mutlaqo maxfiy» g'ul ostida g'ulla yig'ishda o'ta kuchli ma'muriyatchilikda yo'l qo'yilgan.

1930-yillar boshlarida Yaponiyada «Yosh ofitserlar» tomonidan bir qator siyosiy terrorlar amalga oshirilishiga va, hatto, 1932-yil mayda isyon ko'tarilishiga olib keldi.

1930-yillar oxirida ham Fransiya sanoat ishlab chiqarishi inqirozdan oldingi darajasiga yetmadi.

1930-yillar oxiriga kelib rivojlangan mamlakatlar sanoatining katta qismi elektrlashtirildi.

1930-yillarda Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy siyosatida yuz bergan o'zgarishlar mahalliy ishlab chiqarishning o'sishi va milliy kapitalning kuchayishiga olib keldi.

1930-yillarda Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida ko'pincha bir-hirini almashitgan turli siyosiy rejimlar-boshqaruv shakli bo'yicha diktatorlik va konstitutsion, ijtimoiy mazmuni bo'yicha konservativ, liberal-islotochi, millatchi va so'l kuchlar hukmronlik qilishda davom etdilar.

1930-yillarda o'zining iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy yutuqlarini namoyish qilayotgan Germaniyadan qo'rqish hissi Buyuk Britaniya siyosatini belgilab berdi.

1930-yillarga kelib fizika, kimyo kabi tabiiy fanlarning rivojlanishi yangi, o'ta mustahkam materiallarni yaratish imkonini berdi.

1930-yillari jahonda yuz berayotgan jarayonlar SSSR xavfsizligiga katta tahdid solayotgan edi.

1930-yillarning boshiga kelib AQSH kapitalistik dunyoning tan olingan yetakchisiga, texnik taraqqiyotning yalovbandoriga aylandi.

1930-yillarning ikkinchi yarmida AQSH va Franklin Ruzveltning ortidan butun kapitalistik dunyo iqtisodiy inqirozdan chiqib oldi.

1930-yillarning ikkinchi yarmidan Afrikada iqtisodiy rivojlanish sur'atlari jadallashdi.

1930-yillarning o'talarigacha Fransiya ijtimoiy qonunchilik sohasida bir qadam ham ilg'a tashlamadi.

1930-yillarning oxiriga kelib Versal-Vashington tizimiga Yevropada hech bir davlat amal qilmay qo'ydi.

#### 1931 - yilda bo'lgan voqealar

1931-1932-yillari Yaponiya Manchuriyani bosib oldi va Manchjou-Gu qo'g'irchoq davlatini tuzdi.

1931-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi.

1931-yilning 25-aprelida Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida Munavvarqori boshchiligidagi millatning 15 nafar fidoyisi bo'lgan «Milliy Istiqlo» a'zolari o'tib o'tirishga, qolgan 72 nafar kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi.

1931-yil avgustda 3828 ta quloq xo'jaliklari tugatilgan, 3871 xo'jalik «quloq oilasi» sifatida Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan.

1931-yil 11-dekabrda SSSR MKning «O'zSSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

1931-yil yaponlar sentabrda Xitoyga qarashli Manchuriyaga bostirib kirdi, bir kunda barcha yirik shaharlarini egalladi.

1931-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov o'tib tashlangan.

1931-yildan 17 ta majburiy mehnat posyolkalari Qo'qon, Chust-Pop, Oqdaryo, Ikromov, G'ijduvon, Vobkent, Bauman (hozirgi Shofirkon), Denov, Sariosiyo, Quva, Yungiyol tumanlarida tuzilgan.

1931-yili kommunistlar Xitoy Sovet Respublikasini e'lon qildi va Mao Szedun uning raisi etib saylandi.

1931-yili Liviyada qarshilik harakati bostirilib, uning rahbarlari qatl qilindi.

1931-yili Vestminster statuti deb nomlangan hujjat qabul qilingan.

1931-yili Xitoyning Manchuriya provinsiyasining bosib olinishiga va bu yerda yaponlar tomonidan Manchjou-Gu qo'g'irchoq davlatining tuzilishiga olib keldi.

#### 1932 - yilda bo'lgan voqealar

1932-1936-yillarda Qoraqalpog'iston RSFSR tarkibida bo'lgan.

1932-yil 1-martda yaponlar Manchuriyada Manchjou-Gu davlati tuzilganligini e'lon qildi.

1932-yil aprelda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida Gindenburg g'olib chiqdi, Gitler undan sal ortda qoldi.

1932-yil 5-may-15-iyunda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi O'zbekiston SSR Oliy sudining sobiq prokurori Shamsuddin Badriddinov va uning 5 nafar safdoshi ustidan sud jarayonini o'tkazdi.

1932-yil 14-oktabrda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining O'zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi O'zbekiston SSR Fanlar komiteti tuzildi.

1932-yil noyabrda saylovlarda Gruverga qarshi demokratik partiyadan Franklin Ruzvelt nomzodi qo'yildi. O'ra shuhratparasi bo'lgan bu shaxs o'z umrini siyosiy faoliyatga bag'ishladi. U AQSH prezidentligiga qatorasiga to'rt marta (1932, 1936, 1940, 1944) saylangan yagona shaxs.

1932-yili O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish rasman tugallandi.

1932-yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qildi.

1932-yili O'zbekistonda 60 dan ziyod sovxoz bor edi.

1932-yilda nemis fizigi Vilhelm Konrad vafot etgan.

1932-yilda shaxshunos va arxeolog V.Vyatkin vafot etgan.

### 1933 - yilda bo'lgan voqealar

1933-1937-yillarni qamrab olgan ikkinchi besh yillikda sanoat g'urkirab o'sib, SSSR uning ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

1933-1937-yillar O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning ikkinchi besh yillik davri bo'ldi.

1933-yil 30-yanvarda prezident Paul fon Gindenburg reyxsdagda (parlament) eng katta fraksiyaga ega bo'lgan natsional-sotsialistlar yo'lboshchisi Adolf Gitlerni reyxskansler (hukumat boshlig'i) lavozimiga tayinladi.

1933-yil yanvarda Germaniyada A. Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasi hokimiyatga keldi.

1933-yilda ingliz yozuvchisi J.Golsuorsi vafot etgan.

1933-yilda O'zbekistonda asosan quloqlashtirish siyosati amalga oshirib bo'lingan.

1933-yilgi dahshatli ocharchilikda Ukraina, Kuban, Volgabo'yi, Qozog'istonda 7 mln.dan ortiq kishi ochlikdan vafot etdi.

1933-yili AQSH Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi, shu yillari neytralitet haqida hamda urushayotgan davlatlarga qurol yetkazib berish va kredit ajratishni taqiqlash to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

1933-yili Italiya fashistlaridan namuna olgan o'ng partiyalar ispan fuqarasini tashkil qildi.

1933-yili O'zbekistonda surgun qilingan quloqlar xo'jaliklari soni 5500 tagacha yetgan.

1933-yili SSSR oxirgi yirik davlat-AQSH tomonidan tan olindi.

1933-yili Yaponiya Millatlar Ligasidan chiqdi.

### 1934 - yilda bo'lgan voqealar

1934-1937-yillarda ham O'zbekistonda ko'plab badavlat dehqon xo'jaliklari quloq qilingan.

1934-1956-yillarni Sovet hokimiyati quloqlikka tortib, surgun qilinganlardan tirik qolganlarning erkin fuqarolik maqomini olib, o'z eriga qaytish jarayoni og'ir kechib, u taxminan shu davrni ichiga oladi.

1934-yil 10-17-yanvarda Toshkentda O'zbekiston Kommunistik partiyasining VI syezdida VKP(b) XVII syezdi bo'lib o'tgan.

1934-yildan boshlab Buyuk Britaniya inqirozdan chiqq boshladi.

1934-yili Fransiyada hokimiyatga yana o'nglar keldi.

1934-yili Ispaniyada fashistlarning bir necha vakillari hukumat tarkibiga kirdilar.

1934-yili prezident Gindenburg vafot etgandan so'ng Gidler Germaniyaning fyureri (dohiyisi) bo'lib oldi.

1934-yili Sovet Ittifoqi Millatlar Ligasiga a'zo bo'ldi.

1934-yilda O'zbekiston SSR Fanlar komitetiga Otajon Hoshimov tan qilib saylandi.

1934-yilda Buxorolik jadid Abdurrahmon Burhonov-Munzim vafot etgan.

### 1935 - yilda bo'lgan voqealar

1935-1936-yillardagi Italiya-Efiopiya urushi natijasida Efiopiya, unga qo'shni joylashgan Eritreya va Somalining bir qismi Italiyaning mustamlakasiga aylantirildi.

1935-yil 10-17-yanvarda Toshkentda O'zbekiston SSR Sovetlarining V qurultoyi bo'lib o'tgan. Unda 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan hamma bolalarni yetti yillik ta'limga tortish dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi.

1935-yilga kelib Turkistondagi istiqloatchilik harakati mag'lubiyatga uchradi.

1935-yildan mamlakatning nomi o'zgartirildi: ilgari Fors o'rniga Eron deb ataladigan bo'ldi.

1935-yili Eronda chodra o'rab yurishni bekor qilish to'g'risida qonun qabul qilindi.

1935-yili Germaniyada umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun kuchga kirdi.

1935-yilda yozuvchi Anri Barbyus vafot etgan.

#### 1936 - yilda bo'lgan voqealar

1936-1939-yillari Germaniya iqtisodiyoti to'liq urush maqsadiga bo'yundirildi, harbiy xarajalar 10 barobar oshirildi, qo'shinlar 1914-yil darajasiga yetkazildi, harbiy-dengiz floti isloh qilindi.

1936-yil 18-iyul kuni Ispaniyada falangachilar hamma joyda hukm to'ntarishni boshlab yubordi.

1936-yil noyabrda Yaponiya va Germaniya antikomintern pakti bilan ataluvchi hujjatni imzoladi va 1937-yili unga Italiya ham qo'shildi.

1936-yil 5-dekabrda Qoraqalpog'iston ASSR hududi O'zbekiston tarkibiga kiritildi.

1936-yilda Toshkentda ochilgan davlat konservatoriyasi o'zbek musiqasi va vokal san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

1936-yili Ispaniyada korteslarga (parlament) o'tkazilgan saylovlarda Xalq fronti g'olib chiqdi.

#### 1937 - yilda bo'lgan voqealar

1937-1938-yillari gitlerchilar rejimining asosiy ariyasi Germaniyani total ravishda urushga tayyorlash, mavjud mehnat va moddiy resurslarni to'liq safarbar qilish bo'lib qoldi.

1937-1938-yillari iqtisodiy o'sishda erishilgan yutuqlar va ijtimoiy siyosat gitlerchilar rahbariyatiga Germaniyada ichki holatni barqarorlashtirish imkonini berdi.

1937-1938-yillarda to'qib chiqarilgan soxta ayblar bo'yicha O'zbekistonda 41000 nafardan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37000 nafardan ko'prog'i jazolandi, 6920 nafar kishi esa otib o'ldirishga hukm qilindi.

1937-1940-yillari Buyuk Britaniyada hukumatni konservatorlar yetakchisi Nevill Chamberlen boshqardi.

1937-yil yozida yaponlar Xitoyga qarshi keng miqyosdagi urush harakatlari boshlab yubordi.

1937-yil iyulda Yaponiya keng miqyosdagi urush harakatlari boshlab, Markaziy Xitoy va boshqa bir qator hududlarni bosib oldi.

1937-yil 28-oktabrda XXSR harbiy ishlar vaziri, alohida O'zbek otliq askarlar polkining komandiri va komissari, 19-tog'li otliq O'zbek diviziyasi komandiri lavozimlarida ishlagan Mirkomil Mirsharopov sovet rejimi tomonidan Maykopda qamoqqa olindi.

1937-yil dekabrda Italiya Millatlar Ligasidan chiqdi.

1937-yili O'zbekiston SSRda savodsizlikni tugatish maktablarining soni 413 taga yetdi.

1937-yili O'zbekiston SSRda 139 000 nafar xotin-qizlar o'qish va yozishni o'rganib oldilar.

1937-yili Buyuk Britaniya sanoatning usosiy sohalari bo'yicha jahon iqtisodiy inqirozidan oldingi ko'rsatkichlarga yetib oldi.

1937-yili Buyuk Britaniyada hukimiyatga bosh vazir Nevill Chamberlen kelgan.

#### 1938 - yilda bo'lgan voqealar

